

## TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHINING INDIVIDUAL QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA RIVOJLANTIRISH

**Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna**

*Sharof Rashidof nomidagi Samarqand davlat universiteti assistenti*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada ta'lim jarayonida o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va ularni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlari, qiziqishlari va o'rganish uslublarini hisobga olish orqali ularning ijodiy va intellektual salohiyatini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, pedagogning individual yondashuvi, diagnostika usullari, differensial yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari haqida fikr yuritiladi. Maqolada zamonaviy metodik yondashuvlar misolida o'quvchining qobiliyatini aniqlash, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi.*

**Kalit so'zlar:** *individual qobiliyat, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, differensial yondashuv, pedagogik diagnostika, iste'dodni rivojlantirish, ta'lim texnologiyalari, o'quvchi faolligi, motivatsiya*

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri — har bir o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, individual qobiliyat va ehtiyojlarini aniqlab, ularni to'g'ri yo'naltirish va rivojlantirishdan iborat. O'quvchilar o'rtasida tafakkur, idrok, eslab qolish, ijodiy yondashuv va qiziqishlar darajasining turlicha bo'lishi ularning bilim olish sur'atiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan, pedagogika fanida individual yondashuv, differensial ta'lim va iste'dodlarni erta aniqlash konsepsiyalari tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Bugungi kunda o'quvchilarning faqat umumiy dastur asosida emas, balki o'zining individual salohiyatiga mos tarzda o'rganishiga imkon yaratish – shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tamoyillarining asosi hisoblanadi. Bu esa o'qituvchidan nafaqat dars berish, balki har bir o'quvchining intellektual, ijodiy va psixologik jihatdan o'ziga xos qirralarini aniqlashni, unga mos metodlar bilan ishlashni talab qiladi. Ta'lim jarayonida o'quvchining qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish – murakkab, lekin zaruriy bosqich bo'lib, bu jarayonda diagnostik testlar, kuzatuvlar, suhbatlar, portfoliolar va boshqa psixologik-pedagogik vositalardan samarali foydalanish muhimdir. Ushbu jarayon nafaqat iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash, balki kamroq faollik ko'rsatuvchi o'quvchilarning salohiyatini ochishga ham xizmat qiladi. Mazkur maqolada o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlashning zamonaviy usullari, ularni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar, shuningdek, bu borada o'qituvchining kasbiy mahorati va ijodiy yondashuvining ahamiyati tahlil qilinadi.

Shuningdek, xalqaro tajribalarga murojaat qilinib, ularning milliy ta'lim tizimida qo'llanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish muammosi pedagogika fanida keng o'rganilgan bo'lib, bu borada ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan turli yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, rus pedagoglari L.S. Vygotskiy, A.N. Leontyev, B.G. Ananyevlarning asarlarida bolaning psixologik rivojlanishi, individual xususiyatlari va ijtimoiy faoliyati o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qarati lgan. L.S. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" haqidagi g'oyasi har bir o'quvchining rivojlanish salohiyati turli bosqichlarda namoyon bo'lishi mumkinligini asoslaydi.

Mahalliy olimlardan A.A. Abduqodirov, X.T. To'xtaxodjeyev, Z. Mamarasulov, R. G'anievalarning izlanishlarida o'quvchining shaxsiy qobiliyatlarini erta aniqlash, ularni rivojlantirishda diagnostik yondashuv, differensial ta'lim va shaxsga yo'naltirilgan metodlarning o'rni yoritilgan. Ularning tadqiqotlarida individual yondashuv samaradorligi, shaxsiy rivojlanish dinamikasi, o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ichki motivatsiyasini kuchaytirish usullari asoslab berilgan.

Xorijiy adabiyotlarda esa, H. Gardnerning "ko'p intellektlar nazariyasi" (Multiple Intelligences Theory), B. Bloomning taxliliy fikrlash bosqichlari, D. Kolbning o'rganish uslublari to'g'risidagi tadqiqotlari o'quvchilarning turlicha o'rganish ehtiyojlariga mos ta'limni tashkil etishda muhim manba sifatida qaraladi.

Shuningdek, UNESCO va boshqa xalqaro ta'lim tashkilotlarining hisoboti va tavsiyalarida ham zamonaviy o'quvchining individual rivojlanishini ta'minlashda moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish dolzarb muammo sifatida e'tirof etilgan.

**Metodologiya.** Mazkur ilmiy maqola sifatida o'rganilgan mavzuda quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

**Teoretik tahlil** – mavzu bo'yicha ilgari chop etilgan ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dissertatsiyalar, xorijiy tadqiqotlar o'rganildi va tahlil qilindi.

**Tajriba-sinov usuli** – o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan usullar amaliyotda sinovdan o'tkazildi.

**Pedagogik kuzatuv** – o'quvchilarning dars jarayonidagi faolligi, qiziqishlari va o'zlashtirish sur'atlari muntazam kuzatib borildi.

**So'rovnomma va suhbat** – o'qituvchilar, o'quvchilar va ota-onalar bilan suhbatlar tashkil etilib, ularning fikr-mulohazalari o'rganildi.

**Diagnostik testlar** – o'quvchilarning qobiliyatini aniqlashda psixologik-pedagogik diagnostika testlaridan foydalanildi (masalan, Gardner testi, o'rganish uslublari testlari va b.).

Metodologik asos sifatida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, konstruktivizm, faoliyatga asoslangan ta'lim nazariyalari tanlandi. Ushbu yondashuvlar asosida har bir o'quvchining

ehtiyoj va qobiliyatlarini chuqur tahlil qilib, ularga mos ta'lim sharoitlarini yaratish imkoniyatlari o'rganildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot davomida o'quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qator pedagogik uslublar va yondashuvlar amaliyotda qo'llanildi. Dastlabki bosqichda umumta'lim maktablarida o'qiyotgan 5–9-sinf o'quvchilari orasida diagnostik testlar, so'rovnomalar va psixologik kuzatuvlar o'tkazildi. Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilarning o'rganish uslubi, intellektual darajasi, ijodkorlik salohiyati, kommunikativ faolligi, muammoga yondashuvi kabi qator ko'rsatkichlar aniqlab chiqildi. O'rganilgan ma'lumotlarga ko'ra, sinfda bir nechta yuqori iqtidorli, ya'ni aqliy va ijodiy jihatdan yetuk o'quvchilar mavjud bo'lsa-da, ularning salohiyati har doim ham dars jarayonida to'liq namoyon bo'lavermaydi. Bu holat, asosan, o'quvchining o'z qobiliyatini yuzaga chiqarishga mos shart-sharoit bo'lmaganida yoki pedagogning umumiy yondashuvi sababli yuzaga keladi. Sinov tariqasida tashkil etilgan individual ta'lim yondashuvi asosida darslar olib borilganda, o'quvchilarning ko'pchiligi o'zlarining ilgari noma'lum yoki e'tibordan chetda qolgan qobiliyatlarini ko'rsatishgan. Masalan, ba'zi o'quvchilar yozma ishlarda, boshqalari muloqot, tasviriy san'at, matematik fikrlash yoki texnik loyihalashda yuqori ko'rsatkichlarga erishgan.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim metodlari qo'llanganda o'quvchining darsga bo'lgan qiziqishi va ishtiroki sezilarli darajada oshadi. Bu, o'z navbatida, uning bilim olish jarayonidagi motivatsiyasini kuchaytiradi. Ijtimoiy faolligi past bo'lgan o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlash orqali ularning ichki salohiyatini ochish va ijtimoiylashuvini ta'minlash mumkin bo'ldi. Ko'p intellektlar nazariyasi asosida olib borilgan tahlillar o'quvchilarning faqat an'anaviy bilim emas, balki san'at, sport, texnika, til, mushohada yuritish, hissiy anglash sohalarida ham alohida qobiliyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Pedagoglar o'rtasida olib borilgan so'rovnomalar natijasi shuni ko'rsatdiki, aksariyat o'qituvchilar individual yondashuv zarurligini tan olsalar-da, ularni amaliyotda qo'llash uchun zarur metodik qo'llanmalar va vaqt resurslari yetishmasligidan shikoyat qilishmoqda. Ota-onalarning 70 foizi farzandlarining qaysi sohada iste'dodli ekanligini aniq bilmasliklarini bildirgan, bu esa maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish zaruratini ko'rsatadi. Har bir o'quvchining shaxsiy rivojlanish trayektoriyasini shakllantirish uchun ilg'or diagnostika vositalari, ko'p formatli ta'lim metodlari va o'zaro muloqotga asoslangan ta'lim muhiti zarur. O'qituvchining kuzatuvchanligi, psixologik bilimlari va metodik savodxonligi — individual qobiliyatlarni aniqlashda asosiy omil hisoblanadi. O'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishda maktab jamoasi, ota-ona va jamiyatning hamkorligi doimiy va tizimli bo'lishi lozim.

**Muhokama.** Ta’lim jarayonida o‘quvchining individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish — bu faqat pedagoglarning o‘quvchilarga qanday bilim va ko‘nikmalarni berishiga emas, balki ularning shaxsiy xususiyatlarini to‘liq aniqlashga, ta’lim jarayonini individual ehtiyojlarga moslashtirishga ham bog‘liq. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har bir o‘quvchining o‘ziga xos qobiliyatlari va talablari mavjud, va bu qobiliyatlarni aniqlash va rivojlantirish faqat an’anaviy dars metodlari bilan amalga oshirilishi qiyyin. Shu sababli, o‘quvchilarning individual salohiyatini to‘liq ochish uchun zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ayniqsa, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim metodlari va differensial ta’lim strategiyalaridan foydalanish zarur. O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash jarayonida, shubhasiz, birinchi o‘rinda o‘qituvchining pedagogik mahorati va yondashuvi turganini ta’kidlash lozim. Tadqiqot davomida o‘quvchilarni individual darajada kuzatib borish va ular bilan samarali muloqot o‘rnatish — bu qobiliyatlarni aniq va to‘g‘ri aniqlashning asosiy omillari sifatida namoyon bo‘ldi. O‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalari, ya’ni o‘quvchilarni o‘rganish va ularning qobiliyatlarini rivojlantirishdagi kasbiy bilimlari va tajribalari ta’lim sifatiga bevosita ta’sir qiladi. Shuningdek, o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashda psixologik diagnostika vositalarining ahamiyati ham katta. Shunday qilib, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlikni kuchaytirish, sinfda individual yondashuvni amaliyotda qo‘llash o‘quvchilarning o‘z qobiliyatlarini namoyon etishlariga imkon yaratadi. Biroq, bu jarayonni to‘liq amalga oshirishda pedagogik resurslarning yetishmasligi, metodik qo‘llanmalar va vaqtni samarali taqsimlash masalalari muhim to‘siq bo‘lib qoldi. Tadqiqotda ishtirok etgan o‘qituvchilar ko‘p hollarda individual yondashuvni darsda amalga oshirishda vaqt va o‘quv materiallarini moslashtirishda qiyinchiliklarga duch kelganliklarini ta’kidlashgan. Bundan tashqari, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish jarayonida oila va maktabning hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Ota-onalar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi yaqindan aloqalar, o‘quvchilarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadigan muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Tadqiqot davomida ota-onalar bilan o‘tkazilgan suhbatlar natijasida, ko‘plab o‘quvchilarning farqli qobiliyatlari uyda, o‘yinlar va ijodiy faoliyatlar orqali rivojlanib borishi aniqlandi. Ota-onalar va o‘qituvchilar orasida o‘quvchining rivojlanishini birgalikda kuzatish va unga mos yo‘naltirishning zarurligi haqida umumiy fikr mavjud. Bunday hamkorlikni rivojlantirish uchun zamonaviy o‘quvchilarga mos pedagogik strategiyalar ishlab chiqish, ta’lim tizimining har tomonlama yaxshilanishi uchun muhimdir. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda foydalaniladigan metodlar orasida **ko‘p intellektlar nazariyasi** (Multiple Intelligences Theory) alohida o‘rin tutadi. H. Gardnerning bu nazariyasi asosida, har bir o‘quvchining o‘ziga xos intellektual qobiliyatlari (lingvistik, matematik, muloqot, tasviriy, kinestetik va boshqalar) mavjud.

Shuning uchun ta’lim jarayonida o‘quvchilarni bir xil standartlarga asoslangan holda o‘rganish o‘rniga, ularning turli xil qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan individual yondashuvlar qo‘llanilishi kerak. Bu esa nafaqat o‘quvchilarni motivatsiya qilish, balki ularning ta’limga bo‘lgan qiziqishini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shuningdek, **differensial ta’lim** (individualizatsiya) usullari ham individual qobiliyatlarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘quvchilarni o‘zlarining qobiliyatlari va ehtiyojlariga mos ravishda o‘qitish, ularning shaxsiy rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalarida ko‘rsatilganidek, har bir o‘quvchining rivojlanishi uchun bir xil yondashuvdan ko‘ra, farqli yondashuvlar ta’lim jarayonini samarali qiladi. Mavjud o‘quv dasturlari va materiallari ko‘pincha umumlashtirilgan bo‘lib, ular o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga mos kelmasligi mumkin. Shu bois, o‘qituvchilar tomonidan o‘quvchilar uchun maxsus, moslashtirilgan materiallar va o‘quv rejalarini yaratish, ta’lim jarayonida samaradorlikni oshiradi.

Ayniqsa, ta’limni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish ham o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirishda muhim omil sifatida ko‘riladi. Elektron ta’lim, onlayn platformalar va o‘quv dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarga o‘z vaqtida va mustaqil ravishda o‘rganish imkoniyatlarini yaratadi. Bunday texnologiyalar yordamida o‘quvchilar o‘zlari uchun qulay bo‘lgan o‘rganish uslublarini tanlab, o‘z salohiyatlarini maksimal darajada rivojlantirish imkoniga ega bo‘ladilar.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xusainov, A. Sh. (2017). Pedagogik texnologiyalar va ularning ta’limdagi o‘rni. Tashkent: Universitet nashriyoti.
2. Gardner, H. (2011). Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. New York: Basic Books.
3. A‘zamov, S. K. (2020). Ta’lim jarayonida individual yondashuv va uning samaradorligi. Pedagogika va psixologiya, 45(2), 88–94.
4. Alimov, F. X. (2018). Pedagogik innovatsiyalar: nazariya va amaliyot. Tashkent: O‘qituvchi nashriyoti.
5. Shamsutdinova, N. A. (2019). O‘quvchilarning individual qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasi. Pedagogik texnologiyalar, 21(4), 112–118.
6. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard University Press.